



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститутути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институтути ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

## МУНДАРИЖА:

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев</b> XXI асрда шаклланган янги иқтисодиётлар таркибида креатив иқтисодиётнинг принциплари турларининг назарий масалалари	5
<b>Lola Nazarovna Khalikova, Shamsiddin Kiyamiddinovich Yuldashev</b> Theoretical views of social protection	10
<b>Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабаева</b> Касбий компетенцияларнинг синергетик самарадорлиги	13
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Бехруз Шарофиддин ўғли Усмонов</b> Инновацион ёндашувлар орқали инсон ресурсларини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари	17
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Инновацион иқтисодиёт шароитида камбағалликни қисқартиришнинг “4ГС моделли”нинг моҳияти ва қўлланилиши	22
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Хайрулла Qilichovich Qarshiboyev</b> Korrelyatsiya va regressiya tahlilini korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilish usuli	27
<b>Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova</b> Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yashil sertifikatlash va ekologik markirovkalash amaliyotini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari	32
<b>Gulzira Ikromali qizi Karimova</b> To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini “yashillashtirish” orqali oshirish	37
<b>ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Зарина Муродовна Мухаммедова, Аллаёр Баротович Шакаров</b> Хизматлар соҳасини давлат томонидан тартибга солиш ва қўллаб-қувватлаш – давлат макроиқтисодий сиёсатининг муҳим йўналиши сифатида	43
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Savdo xizmatlarining ahamiyati va rivojlanishi	49
<b>Nodirjon Begaliyevich Ravshanov</b> Ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini ta‘minlash	52
<b>Dildora Haydarjon qizi Shaymardonova</b> Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi subyektlar samaradorligini oshirish	57
<b>Бехзод Абдумаджитович Суюнов</b> Турар-жой кўчмас мулк бозорида баҳолаш хизматлари самарадорлигини ошириш	59
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Akbar Norboyevich Alimov</b> Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida ovqatlanish etiketining talqini	66
<b>Faxriddin Azimovich Djalilov</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish omillari	69

муаммолари ҳал этилиши, белгиланган мақсадга эришишнинг самарали механизмлари ишлаб чиқиши ва амалиётга жорий этилиши лозим. 2020 йилнинг 16 июнида бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев хизмат кўрсатиш соҳасини тартибга солиш унинг методологияси ва статистикасини халқаро андозаларга келтириш вазифасини кўйди.<sup>1</sup>

**Хулоса ва таклифлар.** Янги Ўзбекистонда хизмат кўрсатиш соҳасини жадал суръатлар билан ривожлантириш асосида ушбу йўналишда ҳозирги кунда дунёнинг ривожланган мамлакатлари билан мавжуд бўлган кескин тафовутларни қисқартириш объектив заруратга айланди. Ушбу аснода хизмат кўрсатиш соҳасига жалб этилган инвестицион ресурслар ҳажмини кўпайтириш, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш муаммолари долзарб аҳамият касб этади. Тадқиқот натижалари хизматлар соҳасига жалб этилган инвестицион ресурсларни соҳа тармоқлари бўйича тақсимланишида жиддий камчиликлар борлигини кўрсатди. Лекин ушбу муҳим ишда ҳали ишга туширилмаган имкониятлар кўп. Бизнингча, хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини шакллантириш борасидаги давлат макроиктисодий сиёсатида инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичи асосий роль ўйнамоғи лозим. Айти пайтда, микродаражада инвестицион ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги иқтисодий омилларни ҳисобга олган ҳолда, макродаражада эса ижтимоий-иқтисодий омилларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилмоғи лозим. Шу сабабли, ушбу мақсадга эришишнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш зарур.

<p style="text-align: center;"><b>М.Мухаммедов, З.Мухаммедова, А.Шакарров</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Государственное регулирование и поддержка сферы услуг как важное направление макроэкономической политики государства</b></p> <p><b>Аннотация:</b> в статье раскрывается цель, значение и основные направления государственного регулирования и поддержки рынка сферы услуг, а также особенности распределения инвестиционных ресурсов по её отраслям с учётом роли той или иной отрасли в макроэкономическом развитии страны.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> сфера услуг, государственное регулирование, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, инвестиционные ресурсы, отрасли сферы услуг, эндогенные и экзогенные факторы.</p>	<p style="text-align: center;"><b>M.Mukhammedov, Z.Mukhammedova, A.Shakarov</b></p> <p style="text-align: center;"><b>State regulation and support of the service sector as an important direction of the state macroeconomic policy</b></p> <p><b>Abstract:</b> the article reveals the main goal of state regulation of the service sector market and its structure by industry, as well as the need to regulate the structure of investment resources of the service sector by industry and emphasizes the need to implement a policy of financial support for these processes.</p> <p><b>Keywords:</b> service sector, government regulation, investment policy, investment activity, investment resources, service sector networks, endogenous and exogenous factors.</p>
---	--

**Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti,

### SAVDO XIZMATLARINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI.

**Annotatsiya:** Maqolada savdo xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning keyingi yillardagi muntazam ravishda ko‘payishi sabablari, savdo xizmatidagi kamchiliklar va ularni yo‘qotish yo‘llari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Savdo xizmatlari, savdo shaxobchalari, ayirboshlash, iste‘mol, tovarlar, savdo hajmi, rivojlanish sabablari.

**Kirish.** Savdo xizmatlari ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini xaridorlarga yetkazish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligini ta‘minlashda muhim

<sup>1</sup> Президент Шавкат Мирзиёев раислигида бўлиб ўтган видеоселектор // <https://raqobat.gov.uz/uzb/prezident-shavkat-mirziyoev-raisliligida-bolib-otgan-videosелектор/>

ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlangan minglab turdagi mahsulotlar savdo xizmatlari orqali iste'molchiga tegishli qiymatda almashtiriladi. Natijada ishlab chiqarish korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlari qoplanadi va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalari bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Har qanday savdo shaxobchasida minglab turdagi aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar bo'lishi lozim. Demak, savdo korxonalari ko'plab ishlab chiqarish korxonalaridan kerakli tayyor mahsulotlarni sotib olib, tovarlarning savdo assortimentini tashkil etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash va qayta ishlash hozirda rivojlanib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Savdo xizmatlar sohasining qadimiy turlaridan bo'lib, savdoning mohiyati va ahamiyati haqida juda ko'p olimlar ilmiy maqolalar, monografiya va darsliklar yozishgan. Bu borada olimlarimizdan B.A.Abdukarimov, M.K.Pardayev, U.X.Xudoyberdiyev, F.H.Qudratov, N.Tuxliyev, Yu.O'rinboyeva kabilarni e'tirof etish lozim. Lekin, ilmiy adabiyotlarda savdo xizmatlarining nazariy asoslari, ahamiyati va hozirgi zamondagi rivojlanish omillari yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola savdo xizmatlarining muhim ahamiyatini va zamonaviy rivojlanish omillarini tahlil qilib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda mantiqiy fikrlash, jamlash, guruhlash, taqqoslash kabi iqtisodiy tahlilning usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Savdo xizmatlari tovarlarga bo'lgan talab va taklif muvozanatini saqlashga yordam beradi. Savdo xizmatlari orqali talab yuqori bo'lgan tovarlar tezroq sotiladi va bu jarayon bunday tovarlarni ko'proq ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Aksincha talabi kam, sifatsiz tovarlar savdo shaxobchalarida sotilmay qoladi. Bunday tovarlarni ishlab chiqarish kamayadi yoki umuman to'xtatiladi. Talabga javob bermaydigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar bankrot bo'lib qoladi. Savdo xizmatlari pul muomalasini tartibga solishda ishtirok etadi. Aholi pul daromadlarini savdo shaxobchalari savdo pullarini banklarga topshiradilar va pul muomalasida ma'lum darajada ishtirok etadilar. Tovarlarni savdo shaxobchalarida qancha tez aylansa, tovarlarni sotib olish uchun pul massasi shunchalik kamroq kerak bo'ladi. Keyingi yillarda tovarlarni naqd pulsiz, pul kartalari orqali sotish yo'lga qo'yildi, Bu ijobiy usul bo'lib, muomaladagi naqd pul massasini kamaytiradi. Lekin, ayrim kichik savdo shaxobchalari faoliyatini yashirin (statistika bo'limida ro'yxatdan o'tmasdan) olib boradilar. Ular savdo pullarini banklarga topshirmasdan, ularni yana tovar sotib olishga sarflaydilar. Natijada muomalada pul massasining ko'proq bo'lishiga olib kelib, naqd pul aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar.

Savdo shaxobchalarida changyutgich, muzlatgich, kir yuvish mashinasi kabi maishiy tovarlar ham sotiladi. Bunday tovarlar oila a'zolarining, ayniqsa ayollarning ishini yengillash-tiradi, bo'sh vaqtlarini ko'paytiradi. Natijada bunday xonadon a'zolari jamoat ishlarida faol qatnashishga, kitob va OAVni o'qishga vaqt topadi. Kitob insonning mehribon va xiyonat qilmaydigan do'sti. Insonlar o'zlarini qiziqtirgan, kerakli kitoblarni kitob do'konlaridan sotib olishi va har bir xonadonda kitoblar javoni bo'lishi lozim. Chekka qishloq joylarda ham kitob savdo xizmatlarini rivojlantirish, insonlarni sifatli kitoblar bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdo xizmatlarini yaxshilash, kengaytirish aholi turmush darajasini oshishiga olib keladi, ya'ni iste'mol darajasi oshadi. Bu esa o'z navbatida savdo xizmatlarini yaxshilanishi, davomiyligi, insonlarga qulayliklar yaratilishiga olib keladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulot (meva, sabzavot) larini yetishtirish, ularni saqlash rivojlanib bormoqda.

**O'zbekiston savdo xizmatlarining hajmi.**

**mlrd. so'm**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2010	2015	2020	2021	2022
Savdo hajmi	6620,8	21336,9	57572,7	72483,2	89816,2

Aholi soni ko'payib, daromadlari yildan-yilga oshib borayotganligi sababli, savdo xizmatlarining hajmi ko'payib bormoqda. Savdo xizmatlarining ko'payishi insonlarga ko'plab sharoitlarning yaxshilanishiga olib keladi. Supermarket va do'konlarda kerakli bo'lgan mahsulotni xohlagan faslda topish va iste'mol qilish mumkin.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda savdo xizmatlarining hajmi yildan- yilga muntazam ravishda yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Keyingi 10 yillikda savdo xizmatlari 13 baravardan ko‘proqga ko‘paygan. Agarda savdo xizmatlari hajmi 2010 yilda 6620,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib uning hajmi- 89816,2 mrd. so‘mga yetgan. Savdo xizmatlarining yuqori sur’atlar bilan ko‘payishiga sabablar ko‘p bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir.

Birinchidan, aholi daromadlarining ushbu yillarda muntazam ravishda ko‘payib borishi. Aholining jon boshiga umumiy daromadlari 2015 yilda-3928,8ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib 17800,0 so‘mdan ko‘proq bo‘lib, 5 baravarga ko‘paygan.

Ikkinchidan, savdo shaxobchalarining aholi iste’moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarining hajm jihatidan ham, assortimenti bo‘yicha ham ko‘payishi.

Uchinchidan, aholi soni va aholi yashaydigan manzillar soni ko‘payganligi ham ta’sir qilgan. 2010 yil oxiriga mamlakat aholisi- 28,5 mln. kishi bo‘lsa, 2022yil oxiriga- 36,0 mln. kishiga yetgan ya’ni- 126,3%ga ko‘paygan.

To‘rtinchidan, savdo xizmatlari hajmining ko‘payishiga inflyatsiya ham ma’lum darajada ta’sir qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilganda, mamlakatda savdo xizmatlarining hajmi muntazam ravishda yuqori sur’atlar bilan o‘sish tendensiyasiga ega. Bu aholi daromadlarining ko‘payib borayotganligi va turmush faravonligi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir vaqtda savdo xizmatlarida kamchiliklar va muammolar mavjudligi aniqlandi:

- savdo shaxobchalarida muddati o‘tgan va ayrim sifatsiz tovarlarning mavjudligi. Bu borada OAV xabarlar berilib turibdi ;

- ayrim savdo shaxobchalari juda kichkina joylarda (ayrimlari yashaydigan uylarning bir xonasida ) bo‘lganligi sababli tovarlarni saqlash qoidasiga rioya qilmasdan yonma-yon saqlash mumkin bo‘lmagan tovarlarni ham bir joyda saqlanayotganligi;

- chekka qishloqlarda tovarlarni yirik do‘konlardan ( supermarket yoki ulgurji- chakana sotuvchi) naqd pulga sotib olib , ustama qo‘yib sotish holatlari mavjud. Bunday do‘konlarni kerakli tovarlar bilan ta’minlaydigan ( naqd pulsiz) uyushmalar tashkil qilish zarurati bor. Hozirgi aloqa mavjudligida buyurtma asosida tovarlar kichik do‘konlarga yetkazib beriladi.

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan turli xil tabiiy sharbatlarni tayyorlab, ularni havo haroratida va yaxlatilgan ( muz solingan) holda insonlarga savdo xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil qilish zarur. Meva va sabzavotlardan tayyorlangan tabiiy sharbatlar inson salomatligiga foydali va hamyonbop bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 11 maydagi “ Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022 yil 27 yanvardagi “ Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
3. Pardayev M.K. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya” 2016yil, 504b.
4. Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand , Sam ISI bosmaxonasi, 2020 yil. 124 bet.
5. www. stat.uz.

<p><b>М.Худойбердиева</b></p> <p><b>Значение и развитие торговых услуг</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В статье описаны социально-экономическая значимость торговых услуг, причины их регулярного увеличения в последние годы, недостатки торгового обслуживания и пути их устранения.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> торговые услуги, отрасли торговли, обмен, потребление, товары, объем торговли, причины развития.</p>	<p><b>M.Khudoyberdieva</b></p> <p><b>Significance and development of trade services</b></p> <p><b>Abstract:</b> The socio-economic importance of trade services, reasons for their regular increase in recent years, shortcomings in trade services and ways to eliminate them are described in the article.</p> <p><b>Keywords:</b> trade services, trade branches, exchange, consumption, goods, trade volume, reasons for development.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.